| EMITENTNING NOMI | |
|---|---|
| To‘liq: | “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki |
| Qisqartirilgan: | “Trastbank” XAB |
| Birja tikerining nomi:* | TRSB |
| **ALOQA MA’LUMOTLARI** | |
| Joylashgan yeri: | O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Navoiy ko‘chasi, 7 uy |
| Pochta manzili: | O‘zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent shahar, Navoiy ko‘chasi, 7 uy |
| Elektron pochta manzili:* | info@trustbank.uz |
| Rasmiy veb-sayti:* | www.trustbank.uz |
| **MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT** | |
| Muhim faktning raqami: | **06** |
| Muhim faktning nomi: | **Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar** |
| Umumiy yig‘ilish turi: | Yillik |
| Umumiy yig‘ilish o‘tkazish sanasi: | 2026 yil 22 may |
| Umumiy yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana: | 2026 yil 22 may |
| Umumiy yig‘ilish o’tkazilgan joy: | O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Navoiy ko‘chasi, 7 uy |
| Umumiy yig‘ilish kvorumi: | 76,67% |

| N | Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar | Ovoz berish yakunlari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yoqlash | | Qarshi | | Betaraflar | |
| | | % | soni | % | soni | % | soni |
| 1 | «Trastbank» XABning 2025-yil faoliyati yakunlari va 2026-yil uchun rivojlanish istiqbollari to‘g‘risidagi hisobotni ko‘rib chiqish. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 2 | 2025-yil uchun Bankning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo‘yicha xulosani tasdiqlash. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 3 | 2025-yilning yillik hisobotini tasdiqlash, hisobot tarkibi:<br>-moliyaviy holat to‘g‘risida jamlangan hisobot,<br>-foyda yoki zarar va boshqa umumiy daromadlar to‘g‘risida jamlangan hisobot,<br>-pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi jamlangan hisobot,<br>-kapitalda o‘zgarishlar to‘g‘risidagi jamlangan hisobot,<br>-2025-yilda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumot. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 4 | Foydani taqsimlash:<br>-2025-yilda olingan foydani;<br>-o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 5 | Umumiy maqsadlar uchun zaxira fondini shakllantirish haqida. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6 | Bank faoliyatining 2026-yilning 1-yarim yilligi va 2026-yil yakunlari bo‘yicha majburiy auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini tasdiqlash, shartnomalarni tuzish hamda audit xizmatlariga to‘lanadigan haqning eng yuqori miqdorini tasdiqlash. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 7 | «Trastbank» XAB Boshqaruvi Raisi bilan mehnat shartnomasini tuzish to‘g‘risida. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 8 | Balansdan tashqari hisoblarda hisobi yuritilayotgan, umidsiz aktivlarni undirish bo‘yicha 2025-yilda ko‘rilgan choralar to‘g‘risidagi. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 9 | Bank Kuzatuv kengashining a’zolari soni tarkibini tasdiqlash. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 10 | Bank Kuzatuv kengashining a’zolarining qo‘shimcha saylovi. | - | | | | | |
| 11 | Bank Ustaviga o‘zgartirish kiritish. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 12 | Bank Kuzatuv kengashining 2025-yil yakunlari bo‘yicha korporativ boshqaruv me’yorlariga rioya etilayotganligi haqida hisoboti. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 13 | Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 14 | 2025-yil yakuni bo‘yicha Bankda korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko‘rib chiqish. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 15 | 2026-2030-yillar uchun “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini tasdiqlash. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |
| 16 | Agar ikki va undan ortiq Kuzatuv kengashining a’zolari afillangan shaxslar bo‘lsa affillangan shaxs bilan kelgusida kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni ma’qullash to‘g‘risida. | 100% | 766 902 682 | - | - | - | - |

**Umumiy yig’ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to’liq bayoni:**

1

1. “Trastbank” XABning 2025-yildagi ish faoliyati natijalari va 2026-yil uchun rivojlanish istiqbollari to‘g‘risidagi hisoboti tasdiqlansin.
2. Bank faoliyatini qonuniy, oqilona va xavfsiz amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan 2026-yil uchun Biznes-reja, Narx-navo, Kadrlar, Investitsiya, Emissiya, Dividend, Kredit siyosati, Hisob siyosati, Depozit siyosati, Likvidlikni boshqarish siyosaati, Tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati, Kapitalni boshqarish siyosati, Xorijiy valyutadagi aktivlarni boshqarish siyosati, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ma’lumot uchun qabul qilinsin. 2025-yil uchun bank faoliyati auditini “PKF MAK ALYANS” MChJ auditorlik tashkiloti o‘tkazdi.
3. Bank Kuzatuv Kengashiga moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va bank faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar ta’minlash topshirilsin:
   - 2026-yil Biznes-rejasi bo‘yicha bank faoliyati natijalarining o‘rnatilgan maqsadlar va rivojlanish yo‘nalishlariga mos ekanligiga doimiy tahlilni amalga oshirgan holda va Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan bank faoliyatining asosiy prognoz ko‘rsatkichlarini bajarish;
   - belgilangan iqtisodiy normativlarga va risk appetiti to‘g‘risidagi bildirishnomada o‘rnatilgan limitlarga rioya qilish;
   - Bank Kuzatuv kengashi qoshidagi bank tavakkalchiliklarni boshqarish qo‘mitasiga ish natijalarini taqdim etgan holda risklarni muntazam ravishda stress-testdan o‘tkazish;
   - uzoq muddatli hamkorlik istiqboliga ega bo'lgan mijozlarni jalb qilish uchun taklif etilayotgan xizmatlar turlari kengaytirish va sifatini oshirish;
   - yirik mijozlar depozitlariga qaramlikning oldini olish maqsadida depozit bazasini diversifikatsiya qilish va mustahkamlash;

| | |
|---|---|
| | – xalqaro moliya institutlaridan kredit liniyalarini jalb qilish ishlarni davom ettirish;<br>– aktivlar sifatini oshirish, milliy valyutada qisqa muddatli kreditlar berish amaliyotini kengaytirish, muammoli kreditlarni undirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish, kelgusida ularning paydo bo‘lishining oldini olish;<br>– murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlariga qat’iy rioya etilishini ta’minlagan holda ularning mualliflari ishtirokida murojaatlarni ko‘rib chiqishga e’tiborni kuchaytirish, bunda tuman va viloyat darajasida ko‘rib chiqilayotgan masalalarni joylarida hal qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;<br>– murojaatlar, shu jumladan sayyor va shaxsiy qabullar, shuning bilan birga tasdiqlangan reja-grafikka asosida sayyor qabullarni o‘tkazish bo‘yicha qilinadigan hisobotlarda to‘g‘ri va tasdiqlangan ma’lumotlarni aks ettirishni nazorat qilish;<br>– ko‘plab marta takrorlangan fuqarolar murojaatlarini tahlil qilinishini va takroriy murojaatlar tahlili asosida yakunlovchi yechimni ta’minlash maqsadida Xalq qabulxonalari va jamoatchilik (mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, xotin qizlar faoli, nuroniylar) ishtirokida muhokama qilsin va asosiz murojaatlar mualliflari bilan tegishli tushuntirish ishlarini olib borish;<br>– mijozlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi sabablarini, murojaatlar bilan ishlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash;<br>– “Ishon telefonlari” va “Call-markaz”ning uzluksiz ishlashi. |
| 2 | 2025-yil uchun Bankning moliya-xo‘jalik faoliyati tekshirish natijalari bo‘yicha xulosa tasdiqlansin. |
| 3 | 1. 2025-yil uchun yillik hisobotlar tasdiqlansin, quyidagi tarkibda:<br>– moliyaviy holat to‘g‘risidagi jamlanma hisobot;<br>– foyda yoki zarar hamda boshqa umumiy daromad to‘g‘risida jamlanma hisobot;<br>– pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi jamlanma hisobot;<br>– kapitalda o‘zgarishlar to‘g‘risidagi jamlanma hisobot;<br>– 2025 yilda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumot. |
| 4 | 1. Bankni o‘tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda qoldig‘ini *(MHXS bo‘yicha jamlanma foyda yoki zarar hamda boshqa daromad to‘g‘risidagi hisobotga muvofiq)* **1 592 119 750 000 so‘m** miqdorida, shundan **852 650 190 000 so‘m** miqoridagi qismi 2025-yildagi o‘tgan yillarning taqsimlanmagan sof foydasi, taqsimlash quyidagi tartibda tasdiqlansin:<br>– oldingi, 2026-yil 18-fevraldagi aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig‘ilishining qaroriga muvofiq o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foyda hisobvarag‘idan **192 043 584 000 so‘m** miqdorida dividendlar to‘langani ma’lumot uchun qabul qilinsin;<br>– o‘z kapitali hisobvarag‘idan – **1 052 894 736 842,11 so‘mni** “Trastbank” XAB ustav kapitalini oshirishga yo‘naltirilsin;<br>– zaxira fondini shakllantirishga – **13 000 000 000 so‘mni** yo‘naltirilsin;<br>– imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash uchun – **23 000 000 so‘mni** yo‘naltirilsin;<br>– Bankning taqsimlanmagan foyda hisobvaraqlarida – **334 158 429 157,89 so‘mni** taqsimlanmasdan qoldirilsin.<br>2. Bankning bitta imtiyozli aksiyasi uchun dividend miqdorini 2025-yil yakuni bo‘yicha 1 000 so‘m miqdorida etib belgilansin. Hisoblangan dividendlar to‘lovini pul mablag‘lari shaklida 2026-yilning 22-mayidan 20-iyulini ham o‘z ichiga olgan davrda amalga oshirilsin. |
| 5 | MHXS bo‘yicha jamlanma foyda yoki zarar hamda boshqa daromad to‘g‘risidagi hisobotga muvofiq 2025-yil uchun sof foydani taqsimlash doirasida, umumiy maqsadlar uchun zaxira fondini shakllantirishga 13 000 000 000 so‘m miqdoridagi summani yo‘naltirish nazarda tutilgani ma’lumot uchun qabul qilinsin. |
| 6 | 2026-yil 1-yarim yilligi uchun oraliq hisobotlarni va 2026-yil uchun majburiy bank moliyaviy hisobotlarining audit tekshiruvini MHXSga muvofiq “transformatsiya” xizmatini ham ko‘rsatgan holda tekshirish uchun “Grant Thornton” MChJ bilan shartnoma tuzilsin va auditorlik xizmati uchun to‘lov chegarasini QQS bilan birga 980 000 000 (to‘qqiz yuz sakson million) so‘m miqdorida belgilansin. |
| 7 | “Trastbank” XAB Boshqaruvi Raisi - Normuxamedov Sardor Rifatovich bilan mehnat shartnomasi, navbatdagi aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida qayta saylangunga qadar, uch yil muddatga tuzilsin. |
| 8 | Bankning 2025-yilda balansdan tashqari hisobraqamlarida yuritilayotgan umidsiz aktivlarini so‘ndirish bo‘yicha chora-tadbirlarni qoniqarli deb e’tirof etilsin. |
| 9 | Bank Kuzatuv kengashining tarkibi soni 9 nafar kishi etib belgilansin. |
| 10 | 1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgandan hamda Ustavga kiritilgan o‘zgartirish belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng quyidagi nomzodlar Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga uch yil muddatga, aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishida qayta saylanguniga qadar qo‘shimcha saylansin: |

| | |
|---|---|
| | (Ushbu masala bo‘yicha Bank Kuzatuv kengashi a’zoligiga nomzodlar “Trastbank” XAB aksiyadorlari tomonidan kumulyativ ovoz berish orqali saylanadi)<br>**Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosi**<br>1) Ataniyazov Jasurbek Xamidovich – Aksiyador Sharipov Toxir Miraximovich vakili (ustav kapitaldagi ulushi 21,9%)<br>**Kuzatuv kengashining boshqa a’zosi**<br>1) Davidkin Mixail Viktorovich– Aksiyador Sharipov Toxir Miraximovich vakili (ustav kapitaldagi ulushi 21,9%)<br>2. O‘rnatilgan tartibda nomzodlar Ataniyazov Jasurbek Xamidovich va Davidkin Mixail Viktorovichlarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga ularni kiritish to‘g‘risida kelishish amalga oshirilsin. |
| 11 | 1. Bank Ustaviga o‘zgartirish 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.<br>2. Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida Bank Ustaviga kiritiladigan o‘zgartirishni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun zaruriy hujjatlarni tayyorlasin. |
| 12 | 1. Bank Kuzatuv kengashining 2025-yil yakunlari bo‘yicha korporativ boshqaruv normalariga amal qilinganligi to‘g‘risidagi hisobot tasdiqlansin.<br>2. Bank Kuzatuv kengashiga topshiriq, potensial investorlar uchun Bankning ochiqligi va jozibadorligi ta’minlansin, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinsin. |
| 13 | 1. Bank tashkiliy tuzilmasi tasdiqlansin.<br>2. Samaradorlikni ta’minlash maqsadida, ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bankning tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatini Bank Boshqaruvi Raisiga topshirilsin. |
| 14 | 1. “Trastbank” XABda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo‘yicha “Premium finance” MChJning hisobot va xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.<br>2. Bank Kuzatuv kengashi korporativ boshqaruv tizimida o‘tkazilgan baholash natijalari bo‘yicha tavsiyalarga amal qilinishi bo‘yicha ishlarni davom ettirsin. |
| 15 | 1. “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi tasdiqlansin.<br>2. Bank Kuzatuv kengashi “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida belgilangan faoliyatning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqib bankning biznes-rejasini amalga oshirishni tasdiqlasin. |
| 16 | Agar kuzatuv kengashining ikki va undan ortiq a’zosi affillangan shaxs bo‘lgan holda, keyingi yillik aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda kelgusida joriy xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida affillangan shaxslar bilan bitim (bitimlar) tuzish qarorini qabul qilish bo‘yicha huquqni Bank Kuzatuv kengashiga taqdim qilinsin. |

Emitentning ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a’zolari foydasiga hisoblangan va to’langan haq va (yoki) kompensasiyalar***

| | **T/r** | **F.I.Sh.** | **Shaxs a’zosi hisoblan-gan emitent organining nomi** | **To‘lov turi (haq va (yoki) kompensa-siyalar)** | **Hisob-langan summa (so’m)** | **Mablag‘lar hisoblan-gan davr** | **To‘lov nazarda tutilgan emitent hujjati** | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | - | - | - | - | - | - | - | |

Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash:

**Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash:**

| **Kandidatlar to ‘g‘risida ma’lumot** | | | | | **Ovozlar soni** |
|---|---|---|---|---|---|
| **N** | **F.I.Sh.** | **Ish joyi** | **Ularga tegishli aksiyalar** | | |
| | | | **soni** | **turi** | |
| **1** | Ataniyazov Jasurbek Xamidovich | Toshkent Davlat Iqtisodiyot | - | - | 766 902 682 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | universiteti | | | |
| 2 | Davidkin Mixail Viktorovich | «PROCAB» MChJ | - | - | 766 902 682 |

Ustavga kiritilayotgan o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalarning matni**

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki**
**Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish**

**115 bandning beshinchi qismidagi** “7 (etti)” degan so‘zlar “9 (to‘qqiz)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

**Bank Kuzatuv**
**Kengashi Raisi** **T.M. Sharipov**